

Zamira QABULOVA, Nazira YANGIBAYEVA

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiyasi kafedrası

**AMALIY MASHG'ULOT DARSLARIDA
SHE'RIY MATNLARDAN FOYDALANISH USULLARI**
(nofilologik guruhlarda o'zbek tili kursi misolida)

(uslubiy qo'llanma)

**Toshkent
"Muharrir" nashriyoti
2014-yil**

Ushbu uslubiy qo'llanma Berdaq nomidagi Qoraqalpoq dalat universiteti Ilmiy kengashida mihokama qilinib nashrga tavsiya etildi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim tizimiga kundan-kunga yangi pedagogik texnologiyalar jalb qilinmoqda. Bu narsa o'z navbatida talabalar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirishga xizmat qilishi tabiiydir. Binobarin, ushbu uslubiy qo'llanmada – nofilologik (qoraqalpoq) guruhlarida o'zbek tilini teran o'zlashtirish uchun uslubiy yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar keltirilib o'tildi. Ma'lumki, she'riy asarlar o'g'zaki nutqni o'stirish bilan bir qatorda talaba yozma nutqini, fikrlash dunyoqarashini ham shakllantiradi. Shunday ekan, "Ozbek tili" mashg'ulotlarida she'riy asarlarni mustaqil tarzda o'zlashtirish ham bir qancha amaliy natijalar berishi bu sinalgan hodisadir.

Mazkur uslubiy qo'llanma nofilologik guruh talabalari, shuningdek, filolog mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Ilham KAZAKOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A.MADAMINOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

G.AVEZOVA,

filologiya fanlari nomzodi

KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda bo'lgani kabi oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimida ham jiddiy, e'tiborga molik ishlar allaqachon yo'lga qo'yildi. Bu borada bir qancha darsuriy ishlar amalga oshirildi. Tilshunoslik va uning ba'zi bo'limlari, ayniqsa, nutqiy malakani oshirish jabhalarida muayyan izlanishlar olib borilayotgani va bular shu paytning o'zida fanga jalb qilinayotganini barchamiz teran tushunamiz. Darhaqiqat, talabalarning nutqiy (og'zaki va yozma) bilimlarini oshirishda she'riy asarlarni o'qitish ham o'z samarasini berishini e'tiborga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Chunki talaba – nazariy qoidalarni o'qib borar ekan, uning amaliy tomonlari, mavzu ichkarisida va mustqil ta'lim topshiriqlarida she'riy asarlarga ro'baro' keladi. Bu esa talabaga ba'zi hollarda qiyinchilik tug'diradi. Muammoning aniq hal qilinishi mumkin bo'lgan tomoni shundaki, talaba o'qituvchi bergan topshiriqlarni to'laligicha uddalashi uchun tavsiya qilingan she'riy matnni yod olishi, udagi qiyin so'zlar lug'atini amaliy mashg'ulot daftariga ro'yxat qilib borishi juda muhim sanaladi. Negaki, har bir berilgan she'rda – kamida o'nta yangi so'z uchrashi xoh u tarixiy, xoh u zamonaviy yoki o'zlashma so'zlar bo'lishi shubhasizdir.

Kunimizda qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotgan she'riy asarlarni talabalarga manba sifatida taqdim qilish hamda ularning matn yuzasidan olib borgan ixcham tadqiqotlarini sinchiklab o'rganib chiqish mobaynida mavzuni **o'zlashtirishning** qulay sharoitlarini hozirlaydi. Zero, talaba o'z bilimlarini matnni o'rganish orqali qo'lga kiritadi. Demak, talaba «matn bo'ylab sayr»(R.Bart) davomida o'ziga kerakli juda ko'plab nazariy bilimlarni puxta egallaydi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada biz masalaning nazariy va amaliy tomonlariga e'tibor qaratdik. Chunki she'riy asarlarning o'ziga xosliklari, u talabalarning nutqiy faoliyati uchun muhim sanalishi, ayniqsa, **ta'rif-tavsif-baholash** manerasiga hissa qo'shishiga diqqat qaratgan holda mustaqil o'qish malakasi shakllanishini asosiy maqsad qilib belgiladik.

Ko'ngil xazinasining qulfi — til,
U xazinaning kalitini — so'z bil.
Alisher Navoiy

SHE`RIY MATN NUTQ O`STIRISH KAFOLATI

Ayonki, jadal rivojlanib borayotgan fan va texnika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, undagi mavjud an'ana va yangilanishlarning iste'moldagi ko'rinishlari bu ta'lim beruvchining ijodiy ko'nikmalari qanchalik yuksakligi bilan ham o'lchanadi. Oliy ta'lim dargohlarining nofilologik guruhlarida o'zbek tili mashg'ulotlarini o'qitishda – talabalarni asosan, nutq o'stirish (og'zaki va yozma), fikrlarini tiniq ifodalay olish, nazariy ma'lumotlarning mohiyatini teranroq tushunish, o'qilishi qiyin bo'lgan atamalarni izohlash kabi dolzarb masalalar hal qilinishi talab etiladi. Binobarin, o'qituvchi nutq o'stirishning turli xil usul va yo'sinlarini reja asosida maqsadli amalga oshirishi muayyan samara berishi tabiiydir. Chunki tajriba barcha muammolarning aniq va to'g'ri hal qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "O'zbekiston yagona vatan" mavzusida matn tuzilishi rejaga kiritilgan bo'lsa, matnga mos she'riy asardan unumli foydalanish mumkin. Talaba bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy, ham biografik ma'lumotga ega bo'ladi. Birinchidan, *olmosh so'z turkumi* haqida nazariy ma'lumot egallasa, ikinchidan she'riy matn orqali olmoshning qaysi ma'naviy guruhlariga mansub ekanligini bilib olishadi. Bunda o'qituvchi talabaga shoir Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Ulug'imsan Vatanim" she'riini ifodali o'qib berishi, yozuv taxtasiga har bir talabaga she'rni bir banddan yozdirishi va talabalar she'rdagi olmoshlarni topib, jadval tuzishini uyga topshiriq qilib belgilsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu usulning bir necha jihatlarga e'tibor qaratmoq lozim:

- *talaba shoir anglatayotgan dunyo – Vatan haqida tushunchaga ega bo'ladi;*

- *she'rning yozilish tarixidan boxabar bo'ladi;*

- *mavzuga oid nazariy bilimlarini charxlaydi;*

- *ifodali o'qish malakasini oshiradi;*

- *shoir hayoti va ijodini o'rganadi;*

- murakkab atamalarni izohlay olish malakasini o'zlashtiradi.

Ma'lumki, she'riy matnlar talabalarga nihoyatda keng imkoniyatlar tuhfa etadi. Jumladan, she'r o'qigan odamning ma'naviy dunyosi yuksaladi. Shoir anglamlarini poetik jilvalantirgan lirika bag`rida ko'proq vatanparvarlik, millatparvarlik, odamiylik, ezgulik va saxovatpeshalik, bag`rikenglik motivlari akslanadi. Ayni bir paytda, kitobxon ko'nglida shoir tuyg`ular tarannumi jilvalanadi. Shuningdek, shoir siymosining adolatparvarligini, haqiqatgo'yligini, donishmandlarga xos ulug` fazilatlarining mohiyatiga teranroq kirib boradi. Bular o'z navbatida talabaga – nutq va nutqiy ko'nikmalarni hosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy kun talabi ham shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo qiyofasidan – axborot olish, yangilikdan boxabar bo'lish kabi holatlarning ijtimoiy sohada muhim ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Shu maqsadda talaba ham yangi-yangi nomdagi she'riy asarlarni o'qishi barobarida – lirika bag`riga singdirilgan muammoning nechog`li ahamiyatli ekanligini teran tushunib borishi nutqiy ko'nikmalarning kamol topishida qo'l keladi. She'riy matnlar ham axborot, ham faoliyat, ham dunyoqarash, ham tafakkur tarzimizga oydinlik olib kiradi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Prezident Islom Karimov "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida alohida ta'kidlaganidek: **"To'g'risini aytadigan bo'lsak, yoshlar bugun axborot va ma'lumotlarni asosan Internet orqali taniyapti. Ota-onasi, o'qituvchilari ming targ'ib-tashviq qilmasin, bugungi yoshlar "O'tkan kunlar", "Urush va tinchlik" kabi mumtoz romanlarni yoppasiga o'qiyapti, deb ayta olamizmi?"** Ha, Yurtboshimiz ta'kidlarida masalaning jiddiy o'rganilishi lozim ekanligiga mantiqiy ishora qilinmoqda. Demak, oliy ta'lim dargohlarining, ayniqsa, o'zbek tili (nofilologik guruhleri) mashg'ulotlarida milliy qadriyatlari tarannum qilgan, ming yillardan buyon ko'z qorachig`day asrab-avaylab kelinayotgan qadriyatlarning qadriga etish, ularni yangi avlodga etkazish kabi tushunchalarni yosh avlod ongiga singdirishda badiiy adabiyotning, xususan, she'riy asarlarning o'rni va roli beqiyosdir. Aytish joiz, talaba (kitobxon) Erkin Vohdov qalamiga mansub yoki Hamid Olimjon qalamiga mansub she'riy asarlarni o'qish davomida – umuminsoniy muammolarning mohiyatiga etib boradi. Shu onning o'zidayoq

Vatan kabi beozor, bepoyon makon, olam yo'qligidan qalblariga shuur va olijanob tuyg'ular toshib keladi.

Umuman, she'riy matn talaba nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish taomillaridan biri sanaladi. Demak, talaba nutqiy manerasi – tushunish, his qilish, ifoda etish kabilarni o'zida jamlaydi. Shu boisdan, talabaga boshlang'ich mashg'ulotlarida – she'riy matnni tahlil qilib berish ijobiy natijalarni beradi. Bu kabi nazariy bilimlarni etkazishda slaydlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari, lug'atlar, she'riy matn va shoir hayotiga oid qiziqarli lavhalar, video roliklar muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Zero, yangilanib borayotgan fan va texnika, ta'lim sohasidagi jiddiy evrilishlar, kundalik ehtiyojlar kabi inson ma'naviy dunyosining kamol topishida, odamiylik va olijanoblik tuyg'ularining shakllanishida munosib hissa bo'lib qo'shilishi tabiiydir. Zotan, she'riy asarlar minglab yillardan, notiqlik san'ati shakllangan davrlardan buyon insoniyat kamoloti uchun beminnat ximat qilib kelmoqda. She'riy matn mohiyatan inson qalbining kashfiyotchisi. U ruh va tanimizga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa ekanligini unutmaslik darkor.

1-MASHG'ULOT

Mavzu: Cho'lponning «Go'zal» she'ri tahlili

"Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar".

Abdulhamid Cho'lpon

Reja:

1. She'ning yaratilish tarixi.
2. She'rdagi «Go'zal» obrazi tahlili

Tayanch atamalar: she'r, shoir, go'zal, obraz.

Ozod Sharafiddinov fikri: Cho'lpon lirikasining naqadar injaligini, ayniqsa, «Go'zal» she'rida yaqqol ko'rish mumkin. «go'zal» - eng nafis, eng sehrli va ayni chog'da, eng sirli she'rlardan biridir. Uning sirliligi shundaki, she'ning nima to'g'rida ekanini uzil-kesil aniqlab olish amri mahol. Bir qarashda bu she'r muhabbat haqida yozilgandek, shoir intiqlik bilan izlayotgan, lekin vasliga etolmayotgan yorining shoirona ta'rifini berayotganday ko'rinadi. Bu ta'rif chindan-da, benihoya nafis – shoirning suyuklisi har qanday afsonaviy go'zallardan go'zalroq¹.

TEZKOR MA'LUMOT

Hayoti va faoliyati

1. 1897 yil Andijonda tug'ilgan.
2. 1974 yil Toshkentga keladi. "Sadoi Turkiston" gazetasida faoliyatini boshlaydi.
3. 1916-1917 yillarda Orenburgda yashaydi.
4. 1924-1926 yillarda Moskvada yashaydi. U yerda o'zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi.
5. Cho'lpon 1937 yil 14 iyulda qamoqqa olinadi va 1938 yil 4 oktyabrda otib tashlanadi.

¹ Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. –Т.: «Маънавият», 2004. 357-б.

6. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991)
7. «Mustaqillik» ordeni (1999) berilgan.

She'riy kitoblari:

1. "Uyg'onish" (1922),
2. "Buloqlar" (1923),
3. "Tong sirlari" (1926),
4. "Soz" (1935)

Nasriy asarlari:


1. "Kecha va kunduz" (1936) roman.
2. "Do'xtur Muhammadyor" (1914).
3. "Qor qo'ynida lola".
4. "Novvoy qiz".
5. "Oydin kechalarda".

Dramatik asarlari:

1. "Yorqinoy" (1920).
2. "Xalil farang" (1921).
3. "Cho'rining isyoni" (1926).
4. "Yana uylanaman" (1926).
5. "Mushtumzo'r" (1928).
6. "O'rtoq Qarshiboev" (1928).
7. "Hujum" (1928).

Tarjimalari:

1. Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov".
2. Gorkiyning "Ona" romani va "Egor Bulichev" pe'zasini.
3. Lohutiyning "Evropa safari".
4. Gotsiyning "Malikai Turandot".
5. Shekspirning "Hamlet".



Talabalar Cho'lponning “Go'zal” she'ri yaratilish tarixi haqida o'z mulohazalarni qo'shimcha tarzda bayon etadi. Mavzu doirasida birgina “Go'zal” «bu kim va nima» degan savolga javob axtarishadi. Ayonki, ushbu she'r Cho'lpon lirikasining bosh bo'g'inini tashkil qiladi. Masalaning e'tiborli jihat shundaki, Cho'lponning ushbu she'rini ikki yo'sinda anglab etmoq zarur: birinchidan shoir, asl ma'noda yorning go'zalligini, muhabbat **«insonning hayot haqidagi ishirin xotiralarini yodga solvuchi jozib sinoat»** ekanligini anglatish bo'lsa, ikkinchidan, majoziy ma'noda, erkka tashnalik, ozodlikka talpinish, ham jismoniy, ham ruhiy erkinlikni tarannum etayotgandek tuyuladi nazarimizda. She'rning birinchi bandiga e'tibor qarataylik:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."

Ushbu bandning shakliy qurilishi, misralar o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan. **«Tikib», «bukib»** so'zlari birbiriga mutanosiblik, ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qilgan bo'lsa, **«so'raymen», «ko'ramen»** so'zlari ichki musiqiylikni, lirik qahramonning botiniy tuyg'ularini, qalbning benihoya kengliklarini, hayotning go'zalligini yorqinroq anglab etishga xizmat qilmoqda. She'rning to'rtinchi misrasida dialektik qonuniyat mavjud. Ya'ni mahbuba haqidagi birinchi xabarni osmondagi **«eng yorug' yulduz»** lirik qahramonga etkazadi. She'rni o'qiganda o'ta sinchkovlik bilan mutoala qilish

lozim. Shoir sheʼrda jonlantirish sanʼatidan mohirlik bilan foydalangan. Yulduz samo jisimi. Unga jon baxshida qilish, «uni gapirtirish», «mushohada yuritish» shoirdan katta isteʼdod talab qiladigan hodisadir.

Nutqiy koʻnikmalarni shakllantirishda sheʼrning roli va oʻrni qanday degan savol tugʻilishi tabiiydir. Javob ham shundayki, sheʼr aslida har bir ijodkorning hayotni tushunishdagi – ideallar bilan belgilanadi. Zukko oʻquvchi «Goʻzal» sheʼridan ikki xil idealni topishi ayni haqiqatdir.

Buni quyidagi koʻrinishda ham aniqlash mumkin:

1 guruh	2 guruh
Muhabbatga boʻlgan eʼtiqod, insoniy goʻzallikni tarannum qilgan. Ayriliq, hijron, koʻnikish tuygʻulari bilan sugʻorilgan, lirik qahramonning hissiy idroki, xayol va hayot oʻrtasidagi mutanosiblikka ishonish kabi jihatlar qamrab olinadi.	XX asrda sheʼriyatning ijtimoiylashuvi natijasida, Choʻlpon talpingan – ozodlik, erk va istiqloq qaygʻusining idrok etilishi, sabab va oqibat oʻrtasidagi ichki bogʻliqlik hosilasi sifatida millat haqidagi oʻy-hayollar, uning istiqbolini qaygʻurishi inkishof qilinadi.

Ayonki, davr va unda yashovchi fuqaroning hayot haqidagi eng birlamchi qarashlari ideal masalasi boʻlib qolmoqda. Idelni kuylash, shoir yashayotgan davrning ilgʻor gʻoyalariga borib ulanadi. Choʻlpon ijodining butun boshli mavzusi – erk va ozodlik gʻoyasi edi. Choʻlpon yuragidagi barcha hasratu qaygʻularini shu ikki soʻz bagʻriga joylagandek tuyuladi. Aslida ham shunday.

«Goʻzal» sheʼrida qanoat tushunchasi oʻta silliq ifodalangan. Shoir nima haqida oʻylamasin, yoki fikr bildirmasin, qanoatli boʻlish, chidamli va sabrlilik odamzodga baxt va saodat keltirishini uqtirayotgandek. Aynan, shu jihatlar sheʼrning yanada taʼsirdorligini, musiqiylikni, ohangdorligini taʼminlagan. Choʻlpon nazdidagi goʻzallik, odamiylikning yuksak namunasi sifatida boʻy koʻrsatadi. Chunki goʻzallik – inson xususiyati, harakat, faoliyat, orzu-umidlarini tarbiyalashga, yanada birdamlik tomon boshlashga yoʻlchi yulduz ekanligi ayonlashib boradi. Choʻlpon «qorongʻu» degan soʻzni ishlatadi. Qorongʻulikdan – yorugʻlik, bular visol, saodat, baxt va omad kabi tushunchalarni oʻzida singdirgani

mohiyatan to'g'ri qo'llanilgan. E'tibor bergan bo'lsangiz she'ning keyingi misralarida bular o'z echimini topadi:

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlayman oydan-da seni so'rmoqqa,
Ul-da aytadirki:"Qizil yong'oqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."

Shoir she'ning ikkinchi bandida – **oy** timsolini qo'llaydi. Bu o'rinda oyning go'zal haqidagi qarashlari bilan ifodalaniladi. Birinchi bandning poetik yaxlitligi – **yulduz** timsolida go'zal mohiyat kasb etgan bo'lsa, ikkinchi bandda esa **oy** timsoliga ulkan ma'no singdirganligi ayonlashadi. Bilamizki, to'lin oyning tungi chiroyi, ko'zlarimizga, ruhiyatimizga o'ziga xos zavqu shavq, poklik va ezgulik nashidasini bag'ishlaydi. Chunki qorong'ulik hayotning rangsizligini ifodalaydi. Hayot esa bir-biridan go'zal, tunda sirli nur taratuvchi oson jismlari bilan mazmunli tuyuladi. Shoir lirik qahramonining oyga savol berishi, mahbuba haqidagi o'z qarashlarini bilib olishi g'oyaning teranlashuviga zamin hozirlaydi.

Zukko o'quvchi uchinchi misrani o'qiganda ko'nglidagi savollarga munosib javob ham topishga ulguradi:

Erta tong shamoli sochlarin yozib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir:"Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni - shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."

Demak, **tunning** yorug'likka, ya'ni o'z o'rnini **kunduzga** bo'shatib berishi hayotning davomiyligini anglatadi. Lirik qahramon tong chog'i esgan mayin shabadaga shivirlaydi. Shamol ham uning ishqida yonib yurganligini, uni istab (sog'inib) dunyolarni sarson kezmoqdaligini aytib o'tadi. Demak, oy timsolining o'rnini shamol egallaydi. Bir-biridan betakror jonlantirishlar, sifatlar lirik qahramonga hech bir tinchlik bermaydi. U yana sifat axtarishga, mahbuba haqida bilishga o'zini burchli sandaydi:

Ul ketgach kun chiqar yorug'liq sochib,
Undan-da so'raymaen sening to'g'ringda.
Ul-da uyatidan berkinib, qochib,

Aytadir: "Bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchlar go'zal,
Oydan-da go'zaldir... mendan-da go'zal!.."

Bu o'rinda **shamol** timsoli – **kun** bilan almashtiriladi. Lirik qahramon o'zining ko'nglidagi savollariga javob axtarishdan sira ham toliqish sezmaydi. Uning uchun mahbuba tengsiz go'zallik ramzi bo'lib qolmoqda:

Men yo'qsil na bo'lub uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.
Boshimni zo'r ishga berib qo'yubmen,
Men suyub...men suyub...kimni suyubmen?
Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!!!"

Lirik qahramon butun she'r davomida go'zallikning ta'rifu tavsifini izlash bilan kifoyalanmaydi. O'z qalbi bilan ham suhbat quradi. 30 misradan iborat «Go'zal» deb nomlangan she'rida Cho'lpon mahorati yanada yaqqol ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Umuman, Cho'lponning «Go'zal» she'rida insoniylik, vatanparvarlik, ulug'vorlik, muhabbat va sadoqat tushunchalari teran mushohadalar bilan tasvirlangan. Zotan, she'rga yuklatilgan lirik qahramon tabiatan o'z **«men»**i bilan borlig'ini samimiy hikoya qalayotgandek. Chunonchi «she'rdan chiqarilgan eng to'g'ri xulosa ham» nutqiy ko'nikmalar – **to'g'ri yozish, bilib olish, his qilish, anglab etish, tahlil qilish** kabilarni o'quvchi qalbida shakllanishiga zamin hozirlaydi. Cho'lpon lirikasi o'quvchini har tomonlama ma'rifatli bo'lishga, vatanni sevishga, mustaqillikni e'zozlashga o'rgatadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Cho'lpon hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Cho'lpon ijodining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?*
3. *«Go'zal» she'rida yana qanday g'oyalar ifodalangan?*
4. *She'r qanday tarixiy ahamiyatga ega?*
4. *Shoir nima uchun qorong'ulikni obraz sifatida tanlagan?*

2-MASHG`ULOT

Mavzu: «Muhammad Yusuf – vatan kuychisi»

Reja:

1. Shoir she`rlarida vatan mavzusi
2. Obrazlilik nutqiy malakani shakllantirish hosilasi

**Uslubiy ko`rsatma:** Talabalar nutqini yanada shakllantirishi uchun matn bilan jiddiy yondashib ishlashi zarur bo`ladi. Negaki, o`zlashtirish vositasida tafakkur kengayadi. Boshqa tomondan, ruhiyatida mehr-muhabbat, bilimdonlik, chaqqonlik va bag`rikenglik tushunchalari bo`y ko`rsata boradi.


Dastavval talabalar O`zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf siymosi bilan tanishishi lozim. U adabiyotga qachon kirib keldi? Ilk she`riy mashqlarida qaysi mavzular etakchilik qildi? singari savollarga javob topishi juda muhim sanaladi.

Birinchi topshiriq. Shoir hayoti va ijodini o`rganamiz...

Ikkinchi topshiriq. Shoir adabiyotga qanday yangiliklarni olib kirdi?

Uchinchi topshiriq. Muhamad Yusuf – xalqchil she`rlar muallifi deganda nimalarni tushunasiz?

Ushbu uchta xususiyat shoirga berilgan ta`rifu tavsifni to`ldirishga, ya`ni aniq maqsadni bilib olishga yo`naltiradi.



TEZKOR MA'LUMOT.

1. 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatida tug'ilgan.
2. 1973-1978 y.y. Rus tili va adabiyoti institutini tugatgan.
3. Ilk she'riy to'plami – «Tanish teraklar» (1985)
4. «Bulbulga bir gapim bor» (1987)
5. «Iltijo» (1988)
6. «Uyqudagi qiz» (1989)
7. «Halima enam allalari» (1989)
8. «Ishq kemasi» (1990)
9. «Ko'nnglimda bir yor» (1991)
10. «Bevafo ko'p ekan» (1993)
11. «Yolg'onchi yor» (1993)
12. «Erka kiyik» (1995)
13. «Osmonimga olib ketaman» (1998)
14. «Saylanma» (2001)
14. «Ulug'imsan Vatanim» (2004)
15. «Xalq bo'l, elim» (2009)
16. Ilk she'ri O'zAS gazetasida chop qilinadi (1976)

Unvoni:

1. O'zbekiston Xalq shoiri – 1998.

Muhammad Yusuf she'riyatining asosiy mavzusi yurtga, vatanga bo'lgan muhabbat tashkil etadi. Shoirning ko'plab she'rlarida Vatanni ko'z qorachigiday asrashga, uning har bir go'shasini avaylab saqlashga, joni-dili bilan sevishtga bo'lgan da'vat balqib turadi. Vatanni sevisht, uning boy milliy qadriyatlarini tushunish, bag'rikenglik, o'zaro mehr-muruvvatlilik, insoniylik kabi boqiy tushunchalar har bir satrida o'ziga xos tarzda poetik inkishof qilinadi. Yuqorida shoir she'riyatining mavzu-mundarjasini uch xususiyat bilan alohida shakllarga ajratgan edik. Demak, shoir aynan shu uch xususiyatga alohida urg'u beradi. Birinchidan, shoir vatan haqida she'r yozar ekan, she'rdagi ortiqcha ta'rif-tavsif qilishga odatlanmaydi, aksincha, har qanday tabiat ne'matlaridan bir hikmat axtirishni fazilat deb biladi. «Ulug'imsan, Vatanim» she'rini tahlil qilib ko'raylik:

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim,

O`zim xoqon, O`zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg`izim, Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O`zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, Vatanim...

Ta`kidlash joizki, odamning ichida ko`milib yotgan nafs qutqusini doimo engib o`tish uning iymon-e`tiqodli shaxs ekanligidan shahodat beradi. Ya`ni inson bolasi bir hisga u qanday bo`lishidan qat`iyan qattiq bog`landimi, undan voz kechish judayam mushkul vazifa. Shoir «dunyoni nima qildim» demoqda. Vatan – hammasi o`zingda! «Jahonim ham», «topingan koshonam ham», «yupatgan ham sen» kabi birikmalarda ulkan umuminsoniy fazilatlar o`z tajassumini topgan.

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o`zing mehri -
Ilig`imsan, Vatanim.

She`rdagi antonimik birikmalar – shoir anglagan dunyo ziddiyatini oshkor qilib turgandek. Ushbu she`rida tarix – uzoq moziyga ekskurs qiladi. Nega aynan «hoqon», «sulton» singari so`zlarni qo`llashdan boshladi? degan savol tug`ilish tabiiy. Javob shundayki, eng qadimgi turkiy qavm, qabilalar Vatan uchun qahramonlik ko`rsatgan. Vatanni sevishni, uni anglab etishni ajdodlardan qolgan qadriyatlargina bizga to`la-to`kis o`rgata oladi degan qarorga keladi. Shu boisdan ham, har bir she`rida bitta g`oyaviy chiziq – **moziy, bugun, kelajak** tushunchalarini tahlil qilishga, unda mavjud jumboqlarni vaqtida anglab etish insoniy burch ekanligini chizishga da`vat qiladi. Prof. Q.Yo`ldoshev qayd etishicha: «Shoirning she`rlari turli yo`nalishda, ular muallifning turfa kayfiyatini ifoda etgan. Lekin Muhammad Yusufning butun ijodi uchun mehrga tashnalik, insonni ayashga intilish eng etakchi belgi edi desak, adashmagan bo`lamiz»¹. Darhaqiqat, «Ulug`imsan,

¹ Йўлдошев Қ. Ёنيқ сўз. –Т.: «Янги аср авлоди», 2006. 290-бет.

Vatanim» she`rida ham munaqqidning yuqoridagi asosli fikrlarini ko`rishimiz mumkin.

Sen Mashrabsan, Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirini duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko`ringan da`vo qilgan,
Ming bir yog`i ochilmagan
Qo`rig`imsan, Vatanim.

Ko`rib turganimizdek, M.Yusuf she`rning uchinchi bandida shoir Mashrab timsolida Vatanga mehru muhabbatini, Navoiy timsolida sadoqatini, Yassaviy timsolida ulug`vorlikni, bag`rikenglikni, odamiylikni tasvirlagan. Hali sen haqingda aytilgan hamma so`zlar bo`lsa ham kam «ming bir yo`g`i ochilmagan» satrida «jumboq»ligicha qolgan betakror xazinasan degan mantiqqa urg`u bermoqda.

Sen Ho`jandsan, Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig`i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko`rgan cho`pon
Cho`lig`imsan, Vatanim.

She`rda tasvirlanayotgan predmetlar – jonlantirish san`ati orqali o`zgacha mohiyat kasb etadi. Tarixdan ma`lum, Turkiston o`lkasining tashqi dushmanlar, tazyiqlar, qirg`inbarotlar sabab begunoh odamlarning qurbon bo`lishi, minglab nodir kitoblarning yoqib yuborilishi, behisob xazinalarning talon-taroj qilinishi shoir uchun og`riqli savol bo`lib yuragini bezovtalaydi. Shu o`rinda nazariy fikrga tayanmoq muhim deb, o`ylaymiz. Shoir ham so`z orqali obrazli fikr yurituvchi notiq hamdir. Faylasuf Sitseron ta`kidlashicha: «kimki jo`n narsalar haqida o`rtacha darajada, ulug` hodisalar haqida esa shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam so`z san`atining chinakam ustasi bo`ladi»¹. Binobarin, M.Yusuf ham Vatanni asrab-avaylashga jonfidolik qilgan Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Muqanna kabi

¹ Машарипова Зиёда. Ифодали ўқиш практикуми. Т.: 2011 йил. 33-бет.

qa`hramonlarimizni ulug` hodisalar qilgan shaxslar deya qiymat bermoqda. Bular she`rning poetik mazmuniga o`ziga xos ruh bag`ishlagan:

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin - Qurdistonda,
Boburing - Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig` deb
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to`qson olti
Urug`imsan, Vatanim...

She`rning beshinchi bandida shoir yanada teran fikrlarni ilgari suradi. Bu fikrlar avvalgi satrlarning mantiqiy davomi bo`lib yangraydi. Qashqar, Enasoy, Qurdiston, Hindiston yuksak tsivilizatsiya o`chog`i. U erlarda madaniyat va ma`naviyatni yuksaltirib, yagona davlat barpo etgan buyuk shaxslarni yodga soladi. Lekin hammasi «tarqab ketgan to'son olti urug`imsan Vatanim» degan satrlarida ichki bir tashkalik, ezgin kayfiyat yarq etib ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi. Shoir alam bilan tilga olgan «ajodlar»ning xatosini biz qilmaslik lozim degan iqrorni ilgari suradi. Shuning uchun ham bu she`r tinglovchi va o`quvchini ma`naviy yuksaklikka chorlaydi. Yuksaklikka esa bilim va mahorat, ko`nikma va malaka, izlanish va o`qish orqali erishiladi. Quyida she`rning kulminatsion nuqtasi avj pardalarda yangraydi. Kitobxonni yanada iroda va matonatli bo`lishga chorlaydi.

O`g`lim desang osmonlarga
G`irot bo`lib uchgayman,
Chambil yurtida Alpomishga
Navkar bo`lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug`beking quchgayman,
G`ichir-g`ichir tishimdagi
So`lig`imsan, Vatanim...

«O`g`lim desang...» satrida shoir Vatanga munosib farzand bo`ldimmi yoki yo`q degan og`riqli savol bilan yuzlanadi. Demak, Vatanini shunday ulug`vorlik bilan sevgan shoir nazdida «hali men vatanga farzandlik burchimni ado qilolmadim» qabilidagi iqror namoyon bo`ladi. **«O`g`lim desang...»** bu jumlaning mohiyatida

olam-olam ma`no mujassam. Aslida ham shunday emasmi? Boshqa bir she`rida «Senga iddaolar qilmay sevaman» degan shoirning achchiq iqrorlari-yu, anglab etgan haqiqatlari emasmi? Bu erda she`rning avj nuqtalari ko`z o`ngimizda zohir bo`ladi. «G`ichir-g`ichir tishimdagi...» satrlari ham mantiqan olib qaraganda dunyodagi beg`am va loqayd yurgan kimsalarga qarata aytilgandek taassurot uyg`otadi qalblarda. Shoir zoti isyonkor bo`ladi. Isyon esa ijobiy ma`noda tushunish lozim. Bu degani shuki, isyonni to`g`ri maqsadlarga, ulug`vor g`oyalarga, vatanparvarlik tuyg`ulariga darj qilish hamdir:

O`tgan kuning - o`tgan kundir,
O`z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo`lin bog`lab,
Dilin dog`lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug`imsan, Vatanim.

Har bir kundan hikmat axtarib yashagan shoir, umring o`tkinchiligi-yu, mehru muhabbatning abadiyligini vaqtida anglab etganini tan olish kerak. U har bir satrida ulug`vor ishlarni amalga oshirgan aqlli va donish zotlarni tilga oladi. Bular VATAN degan so`z bilan chambarchas, ham shaklan, ham mazmunan bog`lanadi.

Yoningda qon yig`lagan bir
Shoiringga qarab qo`y,
Gar Qo`qonga yo`ling tushsa,
Detdomlarni so`rab qo`y.
Hech bo`lmasa Usmon hokin
Keltirmoqqa yarab qo`y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug`imsan, Vatanim...

Bu o`rinda Usmon Nosir kabi buyuk shoirlar tilga olinadi. Shoir qatag`on qurbonlari haqida «Qora quyosh» deb nomlangan doston yozgan. Ayni shu dostonining ko`p qismi Usmon Nosir shaxsiyati va she`riyatini qamrab olgan. «Hech bo`lmasa usmon hokin keltirmoqqa yarab qo`y» jumlasida odamga ko`p maslahat uqtirmaydi. Bunday paytda inson o`zining asl vazifasini bajarishi

lozimligini teran idroklaydi. Va, nihoyat she`rning oxirgi misrasiga e`tibor beraylik:

Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, O`glim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo`ynimdagi iftixorim,
Bo`ynimdagi tumorim,
O`zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, VATANIM !

Ulug` mutafakkir alloma Alisher Navoiy notiq va notqlik haqida shunday deydi: «Va`zxon shunday bo`lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to`lib chiqsin, to`la kirgan odam esa, engil tortib holi qaytsin. Voiz olim halol ish ko`ruvchi bo`lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo`ladi. Agar u boshqalarga buyursa-yu, o`zi qilmasa, uning so`zlari hech kimga ta`sir etmaydi va foyda keltirmaydi».<sup>2</sup> Darhaqiqat, matnni sharhlashda, uni tahlil qilishda shoir she`riyatining nechog`li ahamiyatli ekanligini alohida ta`kidlash zarur. Navoiy fikrini M.Yusuf she`riyatiga muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada tiniqlashadi. Negaki, shoir «shavqu zavqqa» to`lib ijod qiladi. Har bir satri minglab kitobxonni, o`quvchini, talabalarni hayot va adabiyotga bo`lgan mehru muhabbatini, chin insoniylik fazilatlari shakllanishini, vatanga muhabbat ruhida tarbiya topishiga zamin hozirlaydi. Zotan, lirik menni shoir shaxsiyatidan ayro tasavvur qilib bo`lmaydi. Shaxs va she`riyat masalasi odamning qadr-qiymatini aniqlashga, undagi jozib asrornlarni kashf etishga chorlaydi.

Muhammad Yusuf she`riyatida ona obrazi

Til tizimi nutqiy malakani oshirishda she`riy asarlar o`ziga xos halqani tashkil etadi. Nutqiy ko`nikma matn bilan nechog`li izchil ishlash jarayonida amalga oshirilgani bilan ham o`lchanadi, albatta! Talaba matn ustida ishlaganda u nasriy yoki nazmiy asar bo`ladimi, birinchi navbatda so`zlarning qo`llanilish tomonlariga jiddiy e`tibor qaratishi lozim. Negaki, matnni sharhlashda so`zlarning joylashish tartibi, qay maqsadda foydalanganlik darajasi, bilim va ko`nikmalarning joriy holati kabilar ham o`z samarasini berishi

² Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 32-бет.

mumkin. Joriy matn tahlili sheʼriy asar boʻlsa, unda qofiya, ritm, boʻgʻin, turoq, vazn kabi ritmik unsurlarning nima ekanligini bilishlari muhim sanaladi. Ayniqsa, nofilologik guruhlarining oʻzbek tili mashgʻulotlarida talabani qoʻlida izohli lugʻat boʻlishi kerak. Qiyin atmalarni oʻrganish, izohlash lugʻat yordamida amalga oshirilishi sinalgan hodisadir. Shunday ekan, biz oldimizga qoʻygan masala mohiyati ham aynan, nutqiy birliklar, taʼsirchanlik, emotsionallik, estetik, goʻzallik, nafosat va qadriyatlilik, ulugʻvorlik va sokinlik tushunchalarini tahlil qilishga yoʻnaltirilgan. Aynan shu jihatlar mohiyatni anglashga zamin hozirlaydi. Nutqning taʼsirchan boʻlishi uchun sheʼrda ruhoni kayfiyat yuksak ideallar bilan sugʻorilishi kerak. Ayniqsa, millat ruhiyatidagi qadim qadriyatlar vatan, ona, ota, doʻst mavzusidagi sheʼriy asarlarda koʻplab uchraydi. Alloma Yusuf Xos Hojibning hikmatiga quloq tutsak, yanada teranroq his qilish mumkin:

Zakovat koʻrki soʻzdur, bu tilning koʻrki soʻzdur,
Kishining koʻrki yuzdur, bu yuzning koʻrki koʻzdur.

Aytish joiz, buyuk allomaning taʼbiri ham zakovatli boʻlish uchun soʻzni bilish, odamzot tilining koʻrki soʻz bilan ziynatlangan boʻladi demoqda. Shuning barobarida inson tashqi qiyofasi, zohiriy goʻzallik – yuz bilan, uning mohiyatini akslantiradigan koʻzdir deyishida jozib hikmat yashirin. Binobarin, shoir Muhammad Yusuf lirikasida ona timsoliga alohida muhabbat bilan yondashadi. Ona xarakterini oʻziga xos oʻxshatishlar, goʻzal tashbehlar bilan inkishof qilishga kirishadi:

Koʻnglim qolsa bulbuldan ham guldanda ham, 11
Qolar boʻlsam bir kun axir tildan ham... 11
Agar bir zot yigʻlasa chin dildan ham - 11
Onam yigʻlar, onam yigʻlar, onam u... 11

Qarang, sheʼrda qoʻllanilgan «gul», «bulbul» obrazlari lirik qahramonning ichki kechinmalarini, istak-intilishlarini yaqqol namoyon qilib turibdi. **«Agar bir zot...»** satrining oʻziyoq sheʼrga oʻziga xos bir holat goʻzallik, xokisorlik va ulugʻvorlik bagʻishlagan. Sheʼrni tahlil qilish jarayonida shuni qayd etish zarurki, bu sheʼr barmoq vaznida yozilgan. Barmoq vazni haqida soʻz ketganda misralardagi boʻgʻinlarning tengligi, oʻzaro qofiyalanishi nazarda tutiladi.

Sigʻmay qolsam shunday keng bu jahona, 11

Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona,	11
Jonsiz tanim ustida ham parvona -	11
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...	11

Shunday tarzda bo'g'inlarga bo'lib o'rganish mumkin. Vazn arabcha «o'lchov» degan ma'nolarni anglatadi. She'ning ritmik bo'laklarini vazn orqali, «bo'g'inlar miqdoriga asoslanib» bilib olamiz. Muhammad Yusufning ushbu she'rida qalamga olingan asosiy g'oya – Onaning ulug' zot ekanligini, uni qadrlab, e'zozlab yashash muhimligini turli rakurslardan turib tasvirlashga asoslangan.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Muhammad Yusuf qachon va qaerda tug'ilgan?*
- 2. Shoir she'riyatidagi etakchi mavzu nima?*
- 3. Xalqchilik deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Shoirning Vatan haqida yozilgan she'rlarini tahlil qiling?*
- 5. «Muhammad Yusuf – Vatan kuychisi» deb nomlangan ijodiy insho yozing?*

**Mustaqil o'qish va tahlil qilishga talabalarga
ushbu she'r tavsiya qilinadi.**

TAVALLO

Oq yo`rgakka o`ragansan o`zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o`zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo`lib,
Kunimizga yaragansan o`zing bizni.
Fidoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o`g`loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o`pib,
Yovlar yaqin yo`lomagay qo`rg`oningga.
Adoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston.

Tuzing totib, unutganlar xor bo`ladi,
Ko`zlariga ikki dunyo tor bo`ladi.
Shodon daming ko`rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog`ingga zor bo`ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Gul ko`ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadilu ulug`vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho`llaring ham bizga jannat,
Tuprog`ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko`rgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!

3-MASHG'ULOT

Mavzu: Shavkat Rahmon lirikasida tabiat tasviri

Reja:


1. Shoir she'rlarida tabiat tasviri o'ziga xosligi
2. "Rangin lahzalar" kitobi xususida

Tayanch tushunchalar: she'r, shoirlik, tabiat, nutq uslubi.

Birinchi topshiriq. Shoir hayoti va ijodini o'rganadilar.

Ikkinchi topshiriq. Tabiat tasviri haqida ma'lumot to'playdilar.

Uchinchi topshiriq. She'rlarini tahlil qilish jarayonida nutqiy ko'nikmalarini shakllantiradilar.



Ushbu diagrammada shoir she'riyatidagi tabiat tasvirining muhim tomonlari aks ettirilgan bo'lib, unda Shavkat Rahmon uslubiga xos qirralarni tahlil qilish imkonini beradi. Shoir ilk she'rlaridanoq tabiat tasviri orqali inson qalbidagi jozib qirralar,

nafosat va go'zallikni inkishof qilganligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

TEZKOR MA'LUMOT

Hayoti va faoliyati haqida

1. 1950 yil 12 sentyabrda O'sh viloyatida tug'ilgan.
2. O'rta maktabni 1966 yil tugatgan.
3. Moskvadagi Adbiyot institutini tamomlagan (1973).
4. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bo'lim boshlig'i (1975-1982, 1985-90 yillar).
5. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul xodim (1982-1984).
6. 1996 yil 2 oktyabrda Toshkentda vafot etgan.

Ijodi haqida

1. «Rangin lahzalar» (Ilk she'riy to'plami 1978).
2. «Yurak qirralari» (1981).
3. «Ochiq kunlar» (1983).
4. «Gullayotgan tosh» (1984).
5. «Uyg'oq tog'lar» (1986).
6. «Hulvo» (1988).
7. «Saylanma» (1997).
8. «Abadiyat oralab» (2012).

Tarjimalari

1. «Saylanma» (F. G. Lorka. 1979. Rus tilidan).
2. «Eng qayg'uli shodlik» (F.G.Lorka. Ispan tilidan. 1989).

She'riy nutq – talabaga har jihatdan mavzuni oson o'zlashtirishga bir qancha qulayliklar keltiradi. Unda shoir tasavvuridagi tabiat-jamiyat-inson munosabatlarini aniqlashga, ham shoir yashagan davr, ham uning ijodiy tutimlari, ham mavzu rang-barangligini to'laligicha anglab etishga zamin hozirlaydi. She'r tabiatidagi kechinmalarni o'zlashtirish uchun talaba she'rni ifodali o'qiy olishi ham muhimdir. Masalan, Muhammad Yusuf yoki Abdulla Oripov an'anaviy usluda qalam tebratishini oddiy kitobxon ham bir o'qishda anglab etishi mumkin. Ba'zi ijodkorlar modern she'rlarni

kitobxonga havola qiladi. Lekin shunday shoirlar borki, ularning sheʼrlari yurak bilan oʻqilib, aql bilan his qilinadi. Ana shunday ijodkorlardan biri XX asr sheʼriyatga yangicha ovoz olib kirgan Shavkat Rahmondir. Shavkat Rahmon ustozlarining ijodini oʻz sheʼrlarida takrorlamadi. Doimo originallikka intilib qalam tebratdi. Bunday sheʼrlar fikr berish bilan bir qatorda, kitobxonga tabiatning bir uzvi sanalgan odamzod qalbini kashf etishga qaratilgan boʻladi. Bular Shavkat Rahmon lirikasining mohiyatini qamrab olgan desak, aslo mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Masalan, shoirning «Abadiyat oralab» deb nomlangan kitobiga kiritilgan sheʼrlarni olib koʻradigan boʻlsak, juda koʻpchilik sheʼrlar tabiat va inson munosabatlarini tahlil qilishga bagʻishlangan. Quyidigi sheʼrda ham shoirning jozib uslubi yaqqol koʻzga tashlanadi:

Togʻlarga bor, dalalarga chop,
Bagʻringni och moviy havoga.
Tuproqni oʻp, maysalarni oʻp,
Dardingni ayt subhi saboga.

Kitobxonga goʻzal tashbehlarni taqdim qilar ekan, beixtiyor xayolingizda yashil archalarga burkangan togʻlar, qirlar, adirlar kela boshlaydi. «Bagʻringni och moviy havoga» satrida shoir tabiatning shaffofligini, butun nafosatni his qilish lozim ekanligini uqtirayotgandek. Goʻyoki, shoir nazdida dunyo – oppoq rangda, giyohlarning pokizaligi ruhiyatga oʻzgacha kayfiyat tortiq qilayotganini sezib qolashan kishi. Ayni paytda, shunday ulugʻvorlik bilan oʻzingda kuch va matonat joʻsh oʻrganini anglab etadigan darajada qalb koʻzing sekin-asta ochila boshlaydi.

Gulga aylan, yomgʻirga aylan,
Sayhonlarga quyil ziyoday,
Qayta tugʻil, yorugʻ yuz bilan
Vodiylarni kezgin piyoda...

Talaba nutqini oʻstiradigan yana bir muhim jihat sheʼriy matnni ifodali oʻqishi bilan ham oʻlchanadi, albatta! Negaki, nutq jarayonida odamning qay darajada bilim va savodli ekanligini bilish mumkin. Sheʼriy matnni qadim zamonlarda Arastu, Sitseron kabi faylasuflar «Notiqlik sanʼati» deb nomlangan moʻʼjaz kitoblarida ham etarlicha asoslab bergan. Demak, sheʼriy matn zukko kitobxonning qalbini tarbiya qilishi barobarida, notiqlik sanʼatini ham egallashiga quyilaylik yaratadi.

Tog`larga bor, dalalarga bor,
Nurga to`ldir umrning damin.
Tuproqni o`p, yalinib yolvor,
Gunohingni kechirar zamin.

She`rning oxirgi bandida ham shoir – da`vatlari chiroyli tashbehtar bilan ma`nodorlikni oshirgan. Mazmun she`rdagi har bir satrda izchillik bilan bog`langan. Qo`llanilgan so`zlar kitobxon tafakkurida shaffof tuyg`ularni shakllantirishga xizmat qilgan.

Shavkat Rahmon tabiatga o`zgacha bir ko`rinishda tashbeh beradi. Tashbehlari (o`xshatish) nozita`b shorining istedodi va mahorati yuksaklashidan dalolatdir. Qo`yida «Yaxshi niyat» deb nomlangan she`rni tahlil qilib ko`raylik:

Ertaga yomg`irlar keladi,
gurkirab yashnaydi havolar,
hulvolar keladi, hulvolar,
oylarga etajak navolar.

Ko`rib o`tganimizdek, she`r tagiga 1985 yil deb imzo qo`yilgan. Bu o`rinda shoir sobiq imperiyaning ichdan emirilib bitganini oldindan sezgandek. Xalqimiz boshiga og`ir kunlar tushganini o`z ko`zi bilan ko`rgan bashoratgo`y shoirning yurak hayqirig`iga quloq solib ko`raylik-chi? Demak, qishning ketishi, bahorning kelishi – yomg`irning yog`ishiga ishora. Achchiq, izg`irin qishdan eson-omon chiqqanda odam qanday o`zida yo`q shodliklarga to`lishi **«Ertaga yomg`irlar keladi...»** satrida yanada tiniq ko`z oldimizda zohir bo`ladi. «Hulvo» turkiy so`z bo`lib, «bahor» ma`nosini o`zida tashiydi. «Oylarga etkajak navolar...» satrida ham o`ziga xos tashbeh – jonlantirish qo`llanilgan. Odamlar yuzida kulgu, quvonch barq uradi, shodlikdan ovozlari (navolari) oylarga etadi demoqchi. Keyingi bandni tahlil qilsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi.

Ertaga bolalar bahaybat
kunlarni o`rnidan jildirar.
Shu qadim dunyoning shamoli
yuraging yonida jildirar...

Shavkat Rahmon o`zi yashab urgan tuzumning nechog`li yolg`on ekanligini juda erta anglagan shoirlardan. Shuning uchun ham 80 yillar bolalariga murojaat qilishi ham mohiyatida o`ziga xos mazmun yashirin. «Bahaybat» so`zi negativ ma`no tashiydi. Uning «qo`rqinchli», «dahshatli», «qorong`ulik» kabi sinonimlari mavjud.

Demak, shoir nazdida «bahaybat kunlar» ma`nosini «bolalar» so'ziga izchil bog`lagan. Bolalar ertaga katta bo'lib, bunday og`ir kunlarni o'rnidan jildiradi demoqda. Uchinchsi misrada «qadim dunyo shamoli» birikmasi o'z o'rnida qo'llanilgan bo'lib, moziyning har bir haqiqatlari yuraging yonida jildirab turishiga ishora qilinmoqda. «Jildirar» so'zi ikkinchi satrda «surmoq», «boshqa joyga o'tqazmoq», «ko'chirmoq» ma`nolarni anglatsa, to'rtinchi misrada «jildirar» deganida shoir «o'ynoqilik», «esmoq», «tovlanmoq» sifatida o'z o'rnida qo'llaydi.

Kelajak bor hali bag`rida
yuz mingta quyoshi porlagan.
Ishonma hech qachon, ishonma
qo'lida quroli borlarga.

Endi she`rning intihosi – uchini bandiga e`tibor beraylik-da! «Kelajak bor hali...» misrada shoir ertangi kun – mustaqillik juda oz qolganiga ishora qilib aynan shu so'zlarni qo'llagan. Yuqoridagi aniq mantiqqa quloq tutib aytadigan bo'lsak, milliy mustaqilligimiz hali qo'lga kiritilgaman «yolg`on-rost» aralash bir davr 80 yillarni og`ir kunlar ekanligini oldindan his qilganligida ko'rinadi. «Yuz mingta quyoshi porlagan» birikmasi bunyodkor xalqimiz hali ko'p narsalarga qodir ekanligini ko'rsatish, ularning yorug` kelajagi yoshlar qo'lida ekanligiga ishora qilinmoqda. «Ishonma hech qachon, ishonma» misrada ogohlikka, bilimdonlikka, sezgirlikka o'rgan degan da`vat mavjud.

She`rda biz ko'nikkan qadriyatlarning hali bir kun kelib o'z asliga qaytishiga ishonish, va, shu kunlar juda oz qolganiga ishongan shoirning yurak hayqirig`i xuddi bir mungli qo'shiq bo'lib yangraydi. Shavkat Rahmon ruhiyatidagi tabiat va jamiyat munsabatlariga oydinlik kiritish istagi ustuvorlik qilgan boshqa-da she`rlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Hammasi bir nuqtada – Milliy Mustaqillik g`oyalariga sodiqlik, vatanimiz sarhadlarini ko'z qorachig`iday asrab-avaylashga bo'lgan e`tibor kuchli. Shuning uchun ham bu kabi she`rlar tabalarni har doim ogohlikka, bilimdonlikka chorlayveradi.

Ta`kidlash joiz, shoirning har bir she`rida odamiylik va vatanparvarlik hissi ufurib turadi. Aynan, shu jihatlar shoirning nazmiy bo'stonini o'ziga xos tarzda bezab turibdi.

Mustaqil o'qish va tahlil qilish uchun **«Er bilan sirlashganim»**
she'rini keltirib o'tishni lozim topdik.

Tobora yaqindir
jasorat oni –
mingta quyoshi bor go'zal daqiqa –
Menga ham bir kuni bo'lur namoyon
ko'pga nasib qilgan buyuk haqiqat.

Men sevgan daryolar shundoq qolurmi,
meni o'ylatgan yo'l qolurmi shundoq?
Men suyangan tog'lar shundoq qolurmi,
shundoq qolarmikan yuraklarda dog'?

Nogahon
xayolim yorishib ketar,
eslab kelajakning ulug'larini –
Men sochib ketaman ko'hna bag'ringga
o'lmas g'oyalarning urug'larini.

1983 y.

3-MASHG'ULOT

Mavzu: Iqbol Mirzo hayoti va ijodi

Reja:


1. Shoir she'rlarida ishq talqini
2. "Sizni kuylayman" kitobi xususida

Tayanch tushunchalar: she'r, ishq, vatan, bag'ishlov, samimiylik.

Birinchi topshiriq. Iqbol Mirzo hayoti va ijodini to'liq o'rganib chiqadilar.

Ikkinchi topshiriq. Shoir she'rlarida ishq talqini o'ziga xosligini tahlil qiladilar.

Uchinchi topshiriq. Shoir she'rlaridan namunalar yod oladilar.



TEZKOR MA'LUMOT

Hayoti va faoliyati

1. Iqbol Mirzo (Mirzaaliev) 1967 yil 1 mayda Farg'ona viloyatida tug'ilgan.
2. «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (1999).
3. O'zbekiston xalq shoiri (2005).

Ijodiy kitoblari

1. «Yurakning shakli» - ilk she'riy kitobi (1993)
2. «Ko'ngil» (1994).
3. «Seni sog'inaman» (1994).
4. «Meni eslaysanmi» (2000).
5. «Tanlangan she'rlar» (2002).
6. «Qo'shiqlarim» (2004).
7. «Seni bugun ko'rmasam bo'lmas» (2005).
8. «Sizni kuylayman» (2007).
9. «Agar jannat ko'kda bo'lsa...» (2010)

SHOIR HAYOT VA IJOD HAQIDA:

Ilk mashqlarimni 7-8 yoshlarda tog'am G'ulom Abdulla ta'sirida yoza boshlaganman. Lekin ular shunchaki mashqlar edi, xolos. Rostakamiga, keyinroq, 20 yoshlarimda she'r yozadigan bo'ldim. Bu jismoniy balog'at bilan ham bog'liq ekan-da...Menga muhabbat qalam tutqazgan. Keyinroq bu tuyg'u yurt ishqiga, vatan sevgisiga aylandi.

Bir paytlar vatan mavzuida yozsang, kimdandir nimadir ta'ma qilayotgandek tuyularding. U kunlar ham o'tdi. Tushundimki, shoir millat taqdiri uchun eng mas'ul shaxs ekan. Shoir o'z xalqisiz hech kim emas, hech narsa emas.

Shoir o'z ixtiyori bilan o'ziga dard yuqtiradigan tabibga o'xshaydi. Hamma yaxshi shoir-adiblarni va Muhammad Yusufni ustoz deb bilaman. Uning samimiyligi, chapaniligi yoqadi. O'zi ham she'rlariga o'xshardi: birovga yomonligi yo'q, sodda odam edi. Agar shoir o'z asarlariga o'xshamasa, chinakam fojea, aslida, shu... Kim nima desa, Muhammad akachalik millatni, shu tuproqni sevgan odamni ko'rmaganman. Men shoirlar orasida yomon odamni uchratmadim. Ular ichida kayfiyat va muhit kishilari bor. Lekin

yaqinroq borib, samimiyroq bo'lsangiz, shoirning go'zal qalbini ko'rishingiz mumkin.

O'zbekiston Xalq shoiri Iqbol Mirzo zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri sanaladi. U o'z iqror bilan tilga olganidek «muhabbat xususida she'rlar yozib», she'riyat maydonida o'z o'rniga ega bo'ldi. Aytish joiz, adabiyotda shunday shoirlar borki, ular ustozlarning ibratli va sharaflil irod va hayot yo'llarini izchillik bilan davom ettirib, ana'analariga sodiqlik bilan yondoshadilar. Xususan, Iqbol Mirzo ustozl Muhammad Yusuf ana'analarini davom ettirib, o'ziga xos yo'l topgan shoirlar sirasiga kiradi. Aynan, Iqbol Mirzo she'rlari ham Muhammad Yusuf she'rlari kabi hofizlaru sa'natkorlar tomonidan qo'shiq qilib kuylanib kelminmoqda. Betakror qo'shiqlari bilan elimizda nom qozongan Oxunjon Madaliev, G'iyos Boytoev, Gulsanam Mamazaitova, Ozodbek Nazarbekovlar muhabbat va vatan haqida bitilgan jozib she'rlarini qo'shiqlarga aylantirdilar. Iqbol Mirzo har bir she'rida samimiy bo'lishga intilib yashaydi. Buni quyidagi she'rida ham kuzatish mumkin:

Istaysizmi-yo'qmi, gardun aylana,
Istaysizmi-yo'qmi, qaytib kelaman.
Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

Yorga qilingan izhori dil oshiqning ruhiy kayfiyatini, uning qalb kechinmalarini ifodalayotganini his etish mumkin. "Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay" misrasida lirik qahramon yorini avaylab-asrayotgani, unga faqat yaxshiliklar sog'inayotganini anglab turibmiz. Yoki mohiyat e'tibori bilan ushbu bitiklar sabab va oqibat falsafasini, oshiqlik, og'riqlaru yo'qotishlar evaziga qo'lga kiritilishini zukko o'quvchi ham tushunib yetayotgandek. She'rning keyingi misralari go'zal tashbehtar, jonlantirishlar yordamida real mohiyat kasb etadi:

Oy botadi – yulduzlarning habibi,
Tong otadi, ta'nasi yo'q samimiy.
Tabiatning qonunidek tabiiy –
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

Hech e'tibor berganmisiz? Cheksi koinotning jismlari oyni yulduzlarga habib bo'lishini. Demak, yulduzsiz kechalar bo'lmaganidek, oysiz kechalarning ham fusunkorligi yo'qligini

uqtirayotgan lirik qahramon o'z muhabbatiga doimo sodiq. "Tong otadi, tanasi yo'q samimiy..." misrasida to'ngning shaffofligini, beg'uborligini, musaffoligini tasvirlamoqda. Bular o'z navbatida jonlanib, odam ruhiyatiga ilqlik va yashashga rag'bat baxshida etmoqda. Yanikim, oshiqning dil nolalariga hamohang tarzda – tabiiylik chegarasida javlon urmoqda. Bular Iqbol Mirzo poetik olamining yorqinligidan, betakrorligidan dalolat emasmi?!

Boshingizda yaproq bo'lib aytaman,
Poyingizda tuproq bo'lib aytaman.
Tuproqdayam mushtoq bo'lib aytaman,
Istaysizmi-yo'qmi, sizni sevaman.

"Yaproq", "tuproq" so'zlariga zalvorli ma'no yuklay olgan shoir nazdida dunyo – chinakam oshiqlarning makonidek ko'rinadi. Muhabbati sohta, yolgo'n oshiqlardan yiroqlashish lozimligiga da'vat qiladi.

Umuman, Iqbol Mirzo she'riy izlanishlarini o'qigan kitobxonda – milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, insoniylik kabi tushunchalarni yanada teranroq anglab etish talqinlari ko'z oldimizda zohir bo'ladi. Shuni aytish kerakki, Iqbol Mirzo hali o'ttizga kirmagan yosh ijodkor payrida el nazariga tushdi. Yaniqsa yigrima besh yoshida chop qilingan ilk she'riy kitobi bilan o'zining o'tkir so'zi, uslubi, dunyoga qarashi, maqorati borligini isbotlab berdi.

Savol va topshiriqlar:

- 1. Iqbol Mirzo she'riyatga qachon kirib keldi?*
- 2. Shoir she'rlarida asosan qanday mavzular yetakchilik qiladi?*
- 3. Hozirgi vaqtdagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?*
- 4. Shoir she'rlari qaysi tillarga tarjima qilingan?*
- 5. O'z ona tilingizda Iqbol Mirzo she'rlaridan namunalar o'qing?*

**Mustaqil o'qish va taqlil qilish uchun quyidagi she'r
tavsiya qilinadi.**

YODINGDA QOLMOQCHI EDIM

Fuzuliy lutf etib ketgan bir zamon,
Go'zallar vafosiz, aldoqchi dedim.
Yoningda qolishga yo'q edi imkon,
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Negadir istardim qiynalishingni,
Yuragingga kamand solmoqchi edim.
Onangga aytolmay qolsang tushingni...
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Do'stlar kechib qo'ygan edi bahrimdan,
Kimlardandir qasos olmoqchi edim.
Haydab chiqardilar hayotlaridan,
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Alamim, hasadim, ginam tufayli,
Ehtimol ustringdan kulmoqchi edim.
Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang mayli,
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

Ko'zingni ko'zimga bermading sira,
Ishondingmi, yo'qmi, bilmoqchi edim.
Seni ko'p o'yladim. She'r yozdim qara,
Men sening yodingda qolmoqchi edim.

1998

XULOSALAR

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimida qulay sharoitlar yaratib berildi. Kundan-kunga jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Oliy dargohlarning har bir dars mashg'ulotlari zamon talablariga javob beradigan ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanilmoqda. Shunday ekan, talabalar «O'zbek tili» mashg'ulotlarida she'riy, nasriy, dramatik asarlarni nazariy ma'lumotga mos ravishda o'rganib borishi o'zining ijobiy samaralarini berayotgani barchamizga oydek ravshan. Nofilologik guruhlar «O'zbek tili» mashg'ulotlarida she'riy matnlarni o'zlashtirish malakasini oshirish maqsadida – turli xil o'yinlar, tezkor savol-javob, klaster, interfaol usullardan o'qituvchilar unumli foydalanishi lozim. Negaki, vaqtning tejamkorligi, ozgina fursat ichida talaba olam-olam ma'lumotlar olishi muhim ekanligini bugungi zamon talab qilmoqda. Har bir dars mashg'ulotlari ko'ngilli, sodda va o'ziga xos yo'sinda o'tkazilish uchun o'qituvchi nasriy va nazmiy asarlardan parchalar o'qib eshittirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadigan shoirlar she'rlari tanlab olindi. Ularda asosan, mavzu ko'lamiga qarab, adabiy jarayon tadrijida tutgan o'rniga tayanilib ish ko'rildi. Shuning bilan birgalikda ham hayoti, ham ijodi atroflicha tadqiq va tahlil qilindi. Cho'lpon, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodidan parchalar keltirildi. Ularning ijodlari muayyan qoidalar negizida tahlil sahniga olib chiqildi. Aytish joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar har bir talaba uchun mavzuni to'laligicha o'zlashtirishga yaqindan yordam beradi. Aynan shu jihatlar bizning oldimizda turgan bir qator masalalarning osonlik bilan hal qilinishiga quyaylik tug'diradi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, talaba dars mashg'uloti jarayonida nutqiy malakasini asosan matnlar yordamida shakllantirishi mumkinligi sinalgan hodisadir. Talaba bu o'rinda nimalarga e'tibor qaratish kerak? Bu savolga quyidagi ko'rinishda javob berish tayinli deb o'ylaymiz:

- birinchidan, talaba o'z oldiga qo'ygan maqsad-intilishlarini aniq chegaralab olmog'i zarur. Bunda berilgan topshiriq (she'riy yoki nasriy matn) muntazam bajarilib borilishi juda muhim sanaladi;

- ikkinchidan, talaba o'z bilim va salohiyatidan kelib chiqib ish tutishi lozim. Ya'ni o'zini qiziqtirgan savollarga javob axtarishi ma'qbul hodisadir. Agar o'zlashtirish malakasi qoniqarli bo'lsa, a'lo bahoga o'zlashtirishi uchun ko'proq mustaqil topshiriqlar berib borish va ularni o'z vaqtida nazorat qilib borish dolzarblik kasb etadi.

- uchinchidan, she'riy matn ustida ko'proq shug'ullanishi kerak. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyatidan boxabar bo'lgandagina, kun savollariga aniq javob bera olishi ayni haqiqatdir.

- to'rtinchidan, bilim va ko'nikmalarini har bir darsda bayon qilishga odatlanmog'i muhim. Negaki, o'zlashtirish malakasi yanada rivojlanib, tajriba va ko'nikama maydoni kengayib boradi. Bu holatni o'qituvchi har bir dars mashg'ulotida qayd qilib borsagina aniq mantiqqa erishiladi;

- beshinchidan, she'riy matn ruhiyat va tafakkurni charxlaydi, mutoala jarayonida odam qalbi teran bilim va tajribalarni o'zida jamlaydi. Shu bois ham ko'pchilik kitobxon she'r o'qishni o'zlariga ma'qul ko'radilar.

Xullas, she'riy matn talaba nutqiy bilim va malakasini shakllantirish kafolati sanaladi. Bunda har bir so'zning mohiyatiga zimdan nazar tashlab, o'rganib, lug'at va boshqa izohli so'zliklardan foydalanib ish ko'rgandagina muayyan maqsadga erishish mumkin. Ta'lim dargohlarida bunday malakaga erishish uchun qulay sharoitlar, shinam xonalar, zaruriy adabiyotlar barcha-barchasi mavjud. Shulardan unumli foydalanib, o'z o'rnida qo'llanilib asosiy masalalarni o'zlashtirib borilsa, demak, o'qituvchining mehnati zoe ketmaydi. Yana shuni aytish joizki, mavjud ko'nikmalar **takrorlash** yordamida ham charxlanib, sayqallanib boriladi. Bularni o'z vaqtida bajarish talabadan qunt va iste'dodni, mas'uliyatli bo'lishni talab qiladi. Shuningdek, matn ustida ko'proq izlanish olib borilsagina yuqorida sanab o'tilgan taomillar o'z samarasini berishi shubhasiz.

Zotan, tajriba va ilmiy haqiqatlar shundan shahodat bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008 yil.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: “Ma'naviyat”, 2009 yil.
3. Yo`ldoshev Q. Yoniq so`z. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
4. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. T.: 2011 yil. 33-bet.
5. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. –T.: “Adabiyot va san'at” nashriyoti. 1991. 30-bet.
6. Muhammad Yusuf. Saylanma. –T.: “Sharq”. 2009 yil.
7. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. –T.: “Movaraunnahr”. 2012.
8. Iqbol Mirzo. Saylanma. Sizni kuylayman. –T.: “Sharq”. 2007 yil

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. She`riy matn nutq o`stirish kafolati.....	4
3. Cho`lponning «Go`zal» she`ri tahlili.....	5
4. «Muhammad Yusuf – vatan kuychisi».....	14
5. Shavkat Rahmon lirikasida tabiat tasviri.....	23
6. Iqbol Mirzo hayoti va ijodi.....	29
7. Xulosalar.....	34
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	36

Ilmiy-ommabop nashr

Zamira QABULOVA, Nazira YANGIBAYEVA

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek filologiyasi kafedrası**

**AMALIY MASHG'ULOT DARSLARIDA
SHE'RIY MATNLARDAN FOYDALANISH USULLARI**
(nofilologik guruhlarda o'zbek tili kursi misolida)

(uslubiy qo'llanma)

**Muharrir:
Luqmon Bo'rixon**

**Dizayner:
Otabek Yoqubjonov**

**Texnik muharrir:
Fayzullo Azizov**

“Muxarrir” nashriёти
Лицензия: AI № 230.2012 йил 16 ноябрь

Теришга 2014 йил 10 апрелда берилди.
Босишга 2014 йил 15 апрелда рухсат этилди.
Бичими 60/84 ¹/16. «Times» гарнитурасида офест босма
узулида босилди. 3,2 shartli b.t.
Adadi 300 dona.

“Muharrir” nashriёти матбаа бўлимида чоп этилди.
100060, Тошкент шаҳри, Элбек кўчаси, 9-уйю
e-mail: muharrir@list.ru